

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021. P.01.07 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TURAKULOVA AZIZA SANDJAROVNA

**YETIM BOLALAR IJTIMOYILASHUV JARAYONIGA
VASIY OILALARNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARINING TA’SIRI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
psychological sciences**

Turakulova Aziza Sandjarovna

Yetim bolalar ijtimoiylashuv jarayonida vasiy oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining ta’siri.....3

Туракулова Азиза Санджаровна

Влияние социально-психологических особенностей опекунских семей в процессе социализации детей-сирот.....31

Turakulova Aziza Sandjarovna

The impact of socio-psychological features of foster families in the socialisation process of orphans..... 59

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works63

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021. P.01.07 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TURAKULOVA AZIZA SANDJAROVNA

**YETIM BOLALAR IJTIMOYILASHUV JARAYONIDA
VASIY OILALARNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARINING TA’SIRI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD.P281 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.nuu.uz va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muxamedova Dilbar Gafurdjanovna
psixologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdullaeva Shoira Xamidovna
psixologiya fanlari doktori, professor

Xrulnova Gelena Vyacheslavovna
psixologiya fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot:

Qarshi Davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.01.07 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil _____ soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zMU, Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 4-qavat, 409-xona. Tel.: (+99871) 246-52-74/faks: (+99871) 246-53-21, (+99871) 246-02-04, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (159 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zMU Bosh o‘quv binosi, “V” qism, 2-qavat, 217-xona. Tel.: (+99871) 246-67-71.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “_____” _____ kuni tarqatildi.

(2023 yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

O‘.B.Shamsiyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

A.I.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.S.Safayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahondagi bolalarni ijtimoiy muhofaza qilish, bola huquqlarini himoyalash, uning biologik, ijtimoiy, psixologik taraqqiyoti uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish bo'yicha qator ijtimoiy dasturni amaliyotga tadbiiq etish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "BMT Bolalar jamg'armasi YuNISEF va AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ota-onalari bilan emas, balki boshqa odamlar bilan yashayotgan bolalarning rivojlanish xususiyatlari ko'p ko'rsatkichlari bilan ota-onasi bilan birga yashaydigan bolalardan farq qilishini"¹ ko'rsatmoqda. Bu bolalarni vasiylikka qabul qiluvchi oilalarning ham, bolalarning ham ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda oilalarda bolalarni aniqlashga malakali yondashuvni shakllantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shu boisdan, yetim bolalarning ijtimoiylashuvi, ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, bolalarning oilaga integratsiyasi masalalarini tadqiq etish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahonda dunyo olimlari tomonidan o'tkaziladigan ko'plab ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onasiz (boshqa odamlar bilan) ulg'aygan bolalarning rivojlanish ko'rsatkichlari, ota-onalari bilan yashaydigan bolalardan juda farq qiladi. Ota-ona mehrining yetishmasligi ularning jismoniy, psixofiziologik, hissiy, psixologik, ijtimoiy rivojlanishida o'z aksini ko'rsatadi. Bundan tashqari, o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, internat muassasalarida tarbiya olgan bolalarning oila haqida tushunchalari yetarli darajada emasligi, qiyin vaziyatlarga ruhan moslasha olmasligi, jamiyatda o'z o'rnini topa olmasligi ko'rsatilmoqda. Bu holatlar nafaqat bolaning atrofidagi yaqinlari, balkim bola atrofidagi jamiyatning boshqa a'zolari bilan ham nizoli vaziyatlarga olib kelib, bolaning ruhiy xolatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: "...Ijtimoiy himoya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash ustuvor yo'nalishlari muhim ahamiyat kasb etmoqda..."². Shu sababli, 2023-2030-yillarga mo'ljallangan, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni joylashtirish tizimini deinstiutsionalizatsiya qilish milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida dastur qabul qilingan. Bu esa ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari sonini qisqartirish, bolalarni oilalarga qaytarish, shuningdek, "Mehribonlik" uylari faoliyatini bosqichma-bosqich bolalar shaharchasiga va ijtimoiy muassasalarning boshqa muqobil shakllariga o'tkazish, yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar uchun yangi oilaviy namunadagi mehribonlik uylarini ochish, shu munosabat bilan "Mehribonlik" uylari faoliyatini to'xtatish vazifalari belgilangan. Patronat ota-onalar kurslarida o'qish istagini

¹ http://www.unicef.org/childfamily/index_24511.html. USAID From the American People. Displaced Children and Orphans Fund, 2008. Available from URL: http://www.usaid.gov/our_work/humanitarian_assistance/the_funds/dcof/index.html

² Указ Президента Республики Узбекистан, от 28.01.2022 г. № УП-60 «О СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА НА 2022 — 2026 ГОДЫ»// <https://lex.uz/docs/5841077>

bildirgan fuqarolar uchun o'quv kurslari tashkil etish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Tadqiqot mavzusining dolzarbligi sababli, yetim qolgan bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuvini muvaffaqiyatli o'tqazish uchun o'z hissasini qo'shadigan homiy, vasiy oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish zaruratidan kelib chiqadi hamda mazkur tadqiqot ishi ushbu strategiyani amalga oshirishga bevosita amaliy hissa qo'shadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-fevraldagi PQ-4185-sonli "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 9-avgustdagi PQ-5215-sonli "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2021-yil 9-avgustdagi PQ-5216-sonli "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 4-avgustdagi PQ-345-sonli "Oilaviy tipdagi Mehribonlik uylari faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-noyabrdagi 739-sonli "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni yoki boshqa qonuniy vakillarini ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 25-oktabrdagi 656-sonli "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 17-yanvardagi 26-sonli "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan Mehr daftari tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va ushbu sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda, ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz olimlari tomonidan vasiylik qilayotgan oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuvi masalasi alohida tadqiqotlar predmeti sifatida o'rganilmagan bo'lsada, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining psixologik, pedagogik, ijtimoiy muammolari U.Askarov, Sh.R.Baratov, E.G'.G'oziev, M.X.Ganieva, M.G.Davletshin, E.X.Zaitov, P.I.Ivanov, E.Kadirov, N.G.Kamilova, V.M.Karimova, N.D.Kasimova, N.M.Latipova, D.G.Muxamedova, T.Matiboev, N.Nagmetova, Z.T.Nishanova, R.S.Samarov, N.S.Safaev, Sh.Sodikova, Sh.M.Ulug'ova, B.M.Umarov, G.V.Xrulnova, U.B.Shamsiev, G.B.Shaumarov, P.S.Ergashev, N.M.Egamberdieva, A.B.Yunusov, G.S.Yunusovalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlari tomonidan ota-ona qaramog'isiz qolgan va maxsus bolalar tarbiya muassasalarida tarbiyalangan bolalarning ijtimoiy hayotga moslashish xususiyatlariga oid masalalar A.P.Agarkova, Yu.A.Aleksandrovskiy,

G.M.Andreeva, M.S.Astoyans, I.A.Bobileva, L.I.Bojovich, D.A.Boykova, I.F.Dementieva, I.V.Dubrovin, O.V.Zavodilkina, A.I.Ivaniskiy, N.P.Ivanova, D.N.Isaeva, P.M.Kozireva, I.A.Korobeynikov, A.I.Lipkina, M.I.Lisina, A.S.Makarenko, I.N.Mamaychuk, V.S.Muxina, I.B.Nazarova, Sh.A.Nadirashvili, A.Yu.Nesterov, A.M.Nechaeva, A.V.Noskova, L.Ya.Olifrenko, V.N.Oslon, A.X.Pashina, A.M.Prixojan, M.V.Romm, N.N.Tolstix, G.V.Semya, Ye.A.Strebeleva, N.N.Tolstix, Ye.N.Simban, A.M.Sherbakova, L.M.Shipitsina, V.R.Shmidt, T.I.Shulga, D.B.Elkonin va boshqalar tomonidan ohib berilgan.

Xorij olimlaridan D.Barridj, E.Bern, G.Blumer, Dj.Boulbi, U.Bronfenbrenner, R.Gilligan, K.Kerns, I.Langmeyer, J.Lldgeyt, M.Love, K.Makouley, A.Maslou, Z.Mateychik, Dj.Mid, J.Piaje, K.Rojers, J.Trisaliois, V.Fahlberg, Z.Freyd, E.Fromm, D.Xou, M.Hill, M.D.S.Eynsvort va boshqalar tomonidan mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari, vasiylik qiluvchi oilalarda voyaga yetayotgan shaxslarning ijtimoiy hayotga moslashuv muammolari tadqiq etilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsion tadqiqot O'zbekiston Milliy universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq A-OT-2021-64 "Oilalarga sifatli va tezkor ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish uchun mobil ilova yaratish" mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida (2020-2022-yy.) bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yetim bolalar ijtimoiylashuv jarayoniga vasiy oilalarning ijtimoiy psixologik xususiyatlarining ta'sirini aniqlash va bolalarning jamiyaga ijtimoiylashuvini ta'minlash yuzasidan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yetim bolalar ijtimoiylashuv jarayonidagi psixologik xususiyatlarning regression tahliliga ko'ra, ijtimoiy psixologik xususiyatlarni aniqlash;

vasiylikdagi oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va ularning yetim bolalarni ijtimoiylashtirish jarayoni bilan bog'liq rivojlanish jihatlarini tadqiq etish;

homiylilik ostidagi oilada yetimlarni ijtimoiylashtirish jarayoniga ota-ona-bola munosabatlarining psixologik ta'sirini aniqlash;

vasiy ota-onalarning bolalar ijtimoiylashuviga konstruktiv ta'sirini ta'minlash uchun "Ota-ona-vasiylarning ijtimoiy-psixologik tayyorgarligi" trening dasturini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida yetim bolalar ijtimoiylashuv jarayoniga vasiy oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining ta'siri tanlangan bo'lib, tadqiqotga Toshkent shahar, Buxoro va Farg'ona viloyatidagi vasiylik oilalarining 116 nafar ota-onalari, 63 nafar Toshkent shahridagi 21- va 22-sonli mehribonlik uylari tarbiyachilari hamda 122 nafar homiy oilada tarbiya olayotgan bolalar jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini yetim bolalar ijtimoiylashuv jarayoniga vasiy oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda I.M.Markovskayaning "Ota-ona va bolaning o'zaro munosabati" so'rovnomasi; Ota-onalarning munosabatlarini o'rganish (Parental Attitude Research Instrument, PARI); R.V.Ovcharovanning Ota-onalar va o'zaro munosabatlarning ustuvor uslubini aniqlash; M.I.Rojkovning

“Shaxsning ijtimoiylashuvni o‘rganish” metodikalaridan foydalanilgan, olingan natijalarning ishonchliligi matematik-statistik metodlari, foizli va faktorli tahlil; Styudentning t-mezoni, Spirmenning korrelyatsiya koeffitsientini hisoblash usullari orqali tasdiqlangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yetim bolalar ijtimoiylashuv jarayonidagi psixologik xususiyatlarning regression tahliliga ko‘ra, vasiylik oilalari tarbiyalanuvchilari kechinmalarini ifodalashdagi bosiqlik, ijtimoiy rollar bilan bog‘liq o‘g‘il bolalardagi mustaqillik, sotsial faollikning ustuvorligi, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida esa yorqin hissiy reaksiyalarning, “ota-onalik rolini qabul qilish” ta’sirida nazoratning diffuz rivojlanishi tufayli “ekspressivlik”, “mustaqillik”, “nazorat” mezonlari bo‘yicha differensial farqlarning mavjudligi asoslangan;

vasiylik oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi “ota-ona-bola” munosabatlaridagi o‘z ustida ishlash, “boshqalarni qabul qilish”dagi ijodiylik va tashabbuskorlik, o‘ziga nisbatan konstruktiv tanqidiylik, qaror qabul qilishdagi mustaqillikning ijtimoiy muhtga bog‘liq ravishda intensiv shakllanishi tufayli “ijtimoiy faollik”ning rivojlanishiga identiv namoyon bo‘lishi isbotlangan;

vasiylik oilalarida bola ijtimoiylashuviga ota-ona tarbiya uslubining ta’siri natijasida ijtimoiy moslashuvchanlik, mustaqillik, faollikka yo‘nalganlik hamda axloqiylikning “ota-ona-bola” tizimida dinamik namoyon bo‘lishi tufayli “qabul qilish”, “emotsional yaqinlik”, “talabchan bo‘lmaslik”, “hamkorlik” kabi integral psixologik munosabalarining ustuvor namoyon bo‘lishi dalillangan;

vasiy ota-onalarning bolalar ijtimoiylashuviga konstruktiv ta’sirini ta’minlash uchun bolaning biologik-sotsiologik-psixologik taraqqiyoti, ota-ona-bola hamda sibling munosabatlari tizimini barqarorlashtirish, bazaviy axloqiy qadriyatlarining konstruktiv transformatsiyalanishi, shaxsning o‘zini “ijtimoiy qabul qilishi” muhimligiga ko‘ra, “Ota-ona-vasiylarning ijtimoiy-psixologik tayyorgarligi” nomli psixologik trening dasturini kiritish zarurati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

vasiylik oilalari xususiyatlarining yetimlarning ijtimoiylashuvi jarayoniga ta’sirini aniqlash uchun “Vasiy oilalarning xususiyatlarini o‘rganish” bo‘yicha ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma ishlab chiqilgan;

yetim bolalarni ijtimoiylashtirish va ijtimoiy moslashish jarayonlarini oshirishga qaratilgan bolalarga g‘amxo‘rlik qilayotgan ota-onalarni o‘qitish bo‘yicha “Ota-ona-vasiylarning ijtimoiy-psixologik tayyorgarligi” nomli trening dasturi ishlab chiqilgan;

ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni vasiylikka olish, ularning vasiy oilalarda ijtimoiylashuvi masalalari tahlil qilingan ma’lumotlar asosida “Ijtimoiy ishda bolalar huquqlarini himoya qilish” nomli uslubiy qo‘llanma nashr etilgan;

yetim bolalarni homiylik ostidagi oilaga joylashtirishning ijtimoiy-psixologik jarayoni va ularni ijtimoiylashtirish jarayonidagi u bilan bog‘liq xususiyatlar bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarinig ishonchliligi tadqiqot ob’ektlarining maqsadga mos tanlangani, ilmiy tekshirishlarda qatnashgan respondentlarning yetarlicha reprezentativligi, tanlangan metodikalarning validligi va ishonchliligi, olingan empirik

miqdorlarning matematik-statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilingani, bunda zamonaviy elektron dasturiy vositalar qo'llanilgani, izlanishlar aniq va rejali bosqichlarda bir-birini to'ldiruvchi usullar yordamida amalga oshirilgani, tadqiqot davomida shakllantirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning bir vaqtda turli yo'nalishlarda amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarinig ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati vasiylikka olingan bolalarning ijtimoiylashuvining psixologik xususiyatlariga oid ilmiy tasavvurlarni boyitishi, shuningdek, tadqiqotda ilgari surilgan g'oyalar ijtimoiy ish hodimlari hamda psixologlarning kasbiy shakllanishiga oid qarashlarni takomillashtirishi hamda "Ijtimoiy ishda bolalar huquqlarini himoya qilish", "Bolalar va yoshlar ijtimoiy himoyasi va ta'minoti", "Oilalar va bolalar bilan ijtimoiy ish" kabi fanlarni ilmiy ma'lumotlarga to'ldirishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati vasiylikka olingan bolalarning psixologik rivojlanishi, ularning jamiyatga integratsiyasi haqidagi bilimlardan ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish hamda yetim bolalarning ijtimoiylashuvining psixologik xususiyatlari izohlangan ma'lumotlardan o'quv mashg'ulotlarini tashkillashtirishda uslubiy jihatdan foydalanishda, "Ota-ona-vasiylarning ijtimoiy-psixologik tayyorgarligi" hamda yetim bolalarni ijtimoiylashtirish jarayonini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarning psixolog kadrlar amaliy tayyorgarligini oshirishga yordam berishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi. Yetim bolalar ijtimoiylashuv jarayoniga vasiy oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining ta'sirini o'rganish asosida:

Yetim bolalar ijtimoiylashuv jarayonidagi psixologik xususiyatlarning regression tahliliga ko'ra, vasiylik oilalari tarbiyalanuvchilari kechinmalarini ifodalashdagi bosqichlik, ijtimoiy rollar bilan bog'liq o'g'il bolalardagi mustaqillik, sotsial faollikning ustuvorligi, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida esa yorqin hissiy reaksiyalarning, "ota-onalik rolini qabul qilish" ta'sirida nazoratning diffuz rivojlanishi tufayli "ekspressivlik", "mustaqillik", "nazorat" mezonlari bo'yicha differensial farqlarning mavjudligi asoslangan ilmiy va amaliy tavsiyalardan "Oila va xotin-qizlar" ilmiy tadqiqot institutining "Oilalarda sog'lom barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta'minlash, gender tenglikka erishish, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan konsepsiyalarni, kompleks, maqsadli, sohaviy va hududiy dasturlarni ishlab chiqishning ilmiy-metodologik asoslarni shakllantirish" nomli rejasi 3-bandining ijrosini bajarishda foydalanilgan ("Oila va xotin-qizlar" ilmiy tadqiqot institutining 2023 yil 13-iyundagi 01-09/1508-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, vasiylikdagi oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va ularning yetim bolalarni ijtimoiylashtirish jarayoni bilan bog'liqligi, ular rivojlanishining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlashga xizmat qilgan.

Vasiylik oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi "ota-ona-bola" munosabatlaridagi o'z ustida ishlash, "boshqalarni qabul qilish"dagi ijodiylik va tashabbuskorlik, o'ziga nisbatan konstruktiv tanqidiylik, qaror qabul qilishdagi

mustaqillikning ijtimoiy muhtga bog'liq ravishda intensiv shakllanishi tufayli "ijtimoiy faollik"ning rivojlanishiga identiv namoyon bo'lishiga oid ilmiy yangiliklardan Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining "Mahallalardagi yoshlar yetakchilari bilan ishlash, besh muhim tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy savodxonligini oshirish" yo'nalishida belgilangan vazifalar ijrosi doirasida mahallalarda yetim bolalar bilan ishlashda manzilli tadbirlar amalga oshirish, mehribonlik uylaridagi yetim bolalar bilan individual shug'ullanishga doir tadbirlarni tashkil etishda foydalanildi (Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining 2023 yil 13-iyundagi 4-13-21-1640-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalardan agentlikning yoshlar orasida ijtimoiylashuv jarayoni, jumladan, yetim bolalarning ijtimoiy psixologik holatini o'rganish imkoniyati yaratildi, shuningdek, vasiy oilalarning xususiyatlarini o'rganishga yordam beradi.

Vasiylik oilalarida bola ijtimoiylashuviga ota-ona tarbiya uslubining ta'siri natijasida ijtimoiy moslashuvchanlik, mustaqillik, faollikka yo'nalganlik hamda axloqiylikning "ota-ona-bola" tizimida dinamik namoyon bo'lishi tufayli "qabul qilish", "emotsional yaqinlik", "talabchan bo'lmaslik", "hamkorlik" kabi integral psixologik munosabalarining ustuvor namoyon bo'lishi dalillangan ilmiy yangiliklardan Respublika Bolalar Ijtimoiylashuv va Moslashuv Markazining "Ota-ona-vasiylarning ijtimoiy-psixologik tayyorgarligi" trening dasturini ishlab chiqishda, Markazning Samarqand, Qarshi hamda Farg'ona filiallaridagi tadqiqot va amaliy faoliyatda foydalanildi (Respublika Bolalar Ijtimoiylashuv va Moslashuv Markazining 2023 yil 23-avgustdagi 02/203-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yetim bolalarni ijtimoiylashtirish va moslashtirish maksadida shart-sharoitlarni aniqlash imkoniyatlarni kengaytirildi, shuningdek, farzand asrab oluvchi oilalarning xususiyatlarini aniqlash samaradorligi ortgan.

Tadqiqot natijalarinig aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2ta xalqaro va 5ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan hamda ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12ta ilmiy ish chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 4ta maqola, jumladan, 2tasi respublika va 2tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Tadqiqot ishi 141 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yetim bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish jarayonida vasiy oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishning nazariy asoslari”** deb nomlangan **birinchi bobi** vasiylik qiluvchi oilalarning xususiyatlarini ilmiy-nazariy tadqiq etish yo'lga qo'yilgani, oilaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga ta'siri muammolarining xorij hamda O'zbekistonlik olimlar tomonidan o'rganilishi, psixologiya, pedagogika hamda sotsiologiya sohasi tadqiqotlarida o'rganilganlik holati masalasiga bag'ishlangan. Jumladan, mazkur bobda o'zbek psixolog olimlaridan U.Askarov, Sh.R.Baratov, E.G.Gaziev, M.X.Ganieva, M.G.Davletshin, E.X.Zaitov, P.I.Ivanov, E.Kadirov, N.G.Kamilova, V.M.Karimova, N.D.Kasimova, N.M.Latipova, D.G.Muxamedova, T.Matiboev, N.Nagmetova, Z.T.Nishanova, R.S.Samarov, N.S.Safaev, Sh.Sodikova, Sh.M.Ulugova, B.M.Umarov, G.V.Xrulnova, U.B.Shamsiev, G.B.Shaumarov, P.S.Ergashev, N.M.Egamberdieva, A.B.Yunusov, G.S.Yunusova va boshqalarning mavzuga oid nazariy qarashlari umumlashtirilgan hamda yetim bolalarning ijtimoiylashuv va jamiyatga moslashuv jarayonlarga oid ma'lumotlar tizimlashtirilganligi yoritilgan.

Oilalar yetim bolalarni ijtimoiylashtirish omili sifatida bolalarning psixologik rivojlanishi, shuningdek, vasiylikdagi bola-ota-ona munosabatlarining xususiyatlarini tavsiflaydi. Ushbu masalalar ijtimoiy-psixologik muammo sifatida ko'tarilib, E.P.Belinskaya, L.I.Bojovich, L.S.Vigotskiy, A.V.Zaporojes, V.P.Zinchenko, I.S.Kon, M.I.Lisina, T.D.Marsinkovskaya, V.S.S.Petrovskiy, S.A.Mukovskaya, V.S.S.Mukovskaya, O.A.Tixomandriskaya, D.B.Elkonin kabi olimlarning mafkuraviy tahdidlar, psixologik profilaktika tizimini yaratish haqidagi nazariy ma'lumotlar keltirilgan. Shu nuqtai nazardan bir qancha omillar, ayniqsa, muhim ko'rinadi: oilani tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, ota-onalarning bolalar bilan birgalikdagi faoliyatga jalb etilishi, ota-onalarning g'oyalari, bolalar tomonidan o'zlashtirilgan qadriyatlar, bola va uning ijtimoiy-madaniy dunyosi o'rganilgan.

Shuningdek, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiylashtirish muammosi L.I.Bojovich, Dj.Boulbi, I.V.Dubrovina, M.Yu.Kondratev, M.I.Lisina, V.S.Muxina, A.M.Prixojan, N.N.Tolstix, L.Kasler, A.Freyd va boshqa psixologlarning ishlarida yoritilgan va tahlil qilingan. Bu muammoning rivojlanishi uchun ijtimoiy-psixologik

sharoitlar, shu jumladan, o‘smirlarning oilaviy mahrumligi masalalari muhimligini ta’kidlanadi (P.Kashchenko, V.Ya.Osennikova, M.N.Alieva, D.M.Mallaeva va boshqalar). Bundan tashqari ularning ishlarida ta’lim muassasalaridagi bolalarning ruxiyatidagi o‘ziga xos psixopatologik buzilishlar, ijtimoiy va psixologik moslashuv tasvirlangan.

Vasiylik va homiylik qiluvchi oilalar hamda muassasalarida tarbiyalangan yetim bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning ijtimoiylashuvi va ijtimoiy moslashuvi mexanizmlarining o‘ziga xos xususiyatlari, ushbu ishlar bo‘yicha bir qator xorijiy tadqiqotlar natijalari ochib berilgan.

Chet el olimlari tomonidan olib borilgan ishonch fenomenining psixologik tadqiqotlarining natijalari keltirilgan bo‘lib, ular uchta asosiy yo‘nalishga qaratilgan: ishonch insonning rivojlanishi va uning salohiyatini to‘liq ochib berish qobiliyatining sharti sifatida talqin etiladi (K. Rodgers), ishonch ontogenezda shakllanadigan shaxsning asosiy xususiyati sifatida talqin qilinadi (E. Erikson), ishonch shaxslararo o‘zaro ta’sirning tarkibiy qismi sifatida “almashinuv nazariyasi” kontekstida ochiladi (K.Xolms). Rus mualliflari o‘z asarlarida yetimlarning ma’lum sohalarga to‘g‘ri kelmasligini ko‘rsatadilar: hissiy (V.S.Muxina, A.M.Prixojan, N.N.Tolstix), kognitiv (I.V.Dubrovina, A.G.Ruzskaya, O.D.Serebrennikova), kommunikativ (M.A.Chuprova). Ijtimoiylashuv jarayoni va ijtimoiy muhitning bolaning shaxsini shakllantirishga ta’sirini o‘rganish xususiyatlari G.M.Andreeva, A.S.Makarenko, L.M.Shipitsina, A.M.Sherbakov va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

“Vasiy oilalarda tarbiyalanayotgan yetim bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuvdagi ijobiy ko‘rsatkichning ijtimoiy-psixologik omillari” deb nomlangan dissertatsiyasining **ikkinchi bobida** vasiyliklik qiluvchi oilalarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish natijalari va bu natijalarni yetim bolalarning ijtimoiy hayotga moslashish xususiyatlari bilan bog‘liqligi ko‘rib chiqiladi.

Keyinchalik vasiylik va homiylik qiluvchi oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining ta’sirini o‘rganish natijalari, shuningdek, ushbu xususiyatlarning yetimlarning ijtimoiy hayotga moslashuv parametrlari bilan o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish natijalari taqdim etiladi.

1-jadval
“Ijtimoiylashuv” parametri bo‘yicha regression tahlilining natijalari

Psixologik xususiyatlari (Bog‘liq o‘zgaruvchi)	Faktor (Mustaqil o‘zgaruvchi)	Ahamiyatlilik darajasi(p)
Ijtimoiylashuv toifasi Ijtimoiy faoliyat	Oila birligi	,012
Ijtimoiylashuv Umumiy ko‘rstakich	Jinsi*Oila turi	,033

1-jadvalda keltirilgan natijalar bizga 1) “Oila birligi” omili bilan Ijtimoiy faollik parametri o‘rtasida muhim aloqalar mavjudligini ko‘rsatadi ($p=0,012$); 2) “Jinsi” va “Oila turi” omillarining o‘zaro ta’siri bilan sotsializatsiyaning umumiy ko‘rsatkichi parametri ($p=0,033$).

Bu ko‘rsatkichlar shuni anglatadiki, bolalar yoki o‘quvchi ishtirokchilarning ijtimoiy faollik darajasi, ularning oilaviy muhiti va oilaviy muhitning qay darajada ijobiyligi bilan bog‘liq. Ko‘proq jipslashgan oilalar, o‘z oila a‘zolarining ijtimoiy faolligini oshirishga bir necha jihatdan hissa qo‘shishi mumkin. Birinchidan, homiylik qilayotgan oilalarda, bolalarga ruhiy yordam, g‘amxo‘rlik va e‘tibor ko‘rsatiladi, bu esa sog‘lom ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, homiy oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar ommaviy maktab-internatlar tarbiyalanuvchilariga qaraganda, oila a‘zolari tomonidan ko‘proq e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rishlari mumkin, bu esa ularning o‘zligini anglashida va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlanishida juda katta yordam beradi. Bundan tashqari, uy sharoitida yashovchi bolalar, ota va onalarning nazoratida bo‘lishlari sababli, ko‘p vaziyatlarda ularning ijtimoiy faoliyatini cheklashi mumkin bo‘lgan qattiq rejimlarga duch kelishlari mumkin.

Bundan tashqari, vasiy yoki xomiy oilada tarbiyalanayotgan bolaning jinsi, uning umumiy ijtimoiylashuviga ta‘sir qilishi mumkinligi aniqlandi. Ehtimol, bu ko‘rsatkich bolaning umumiy ijtimoiylashuvi modellarini namoyon etishi mumkin.

Shunday qilib, tahlil natijalari bolalarda yoki tadqiqot ishtirokchilarida ijtimoiy faollik va ijtimoiylashuvni o‘rganishda oilaning hamjihatligi, bola jinsi va oila turi kabi omillarni hisobga olish muhimligini ko‘rsatadi.

Muayyan farqlarni aniqlash uchun biz ta‘lim, tarbiya muassasalarida va homiylik qilayotgan oilalarda tarbiyalangan o‘g‘il hamda qizlar o‘rtasidagi ijtimoiylashuv farqlarini tahlil qilish uchun parametrik bo‘lmagan Mann-Uitni U-mezoni testiga murojaat qilamiz.

2-jadval

“Ijtimoiylashuvning umumiy ko‘rsatkichi” parametrlari bo‘yicha tahlilning parametrik bo‘lmagan Mann-Uitni U-mezoni testidan foydalanish natijalari.

Jinsi	Oila turi	O‘rta rang
Ayollar	Vasiy	45,53
	Internat	43,56
Erkaklar	Vasiy	39,86
	Internat	37,97

2-jadvalda keltirilgan natijalar quyidagi xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi: maktab-internatlarda tarbiyalangan qizlarning umumiy ijtimoiylashuv ko‘rsatkichi, vasiylik qilayotgan oilalarida tarbiyalanayotgan qizlarnikiga qaraganda bir oz pastroq. Shu bilan birga, vasiylik oilalarida tarbiyalanayotgan o‘g‘il bolalarning ijtimoiylashuv ko‘rsatkichi maktab-internatlardagi tarbiyalanayotgan o‘g‘il bolalarga qaraganda yuqoriroq.

Olingan natijalar ota va onalarning, ijtimoiy-madaniy umidlari bilan bog‘liq

bo'lishi mumkin. Ota, onalar tomonidan kutiladigan ba'zi ijtimoiy-madaniy ko'rsatkichlar, qizlar va o'g'il bolalarning xatti-harakatlariga oid umumiy milliy konuniyatlarga bo'ysinuvchi harakatlardir. Bu taxminlar bolalarning ijtimoiy vaziyatlarni qanday idrok etishi va ularga qanday munosabat bildirishiga ta'sir qilishi mumkin, masalan, qizlar ko'pincha ochiq va ijtimoiy bo'lishi kutiladi, bu ularning umumiy ijtimoiylashuviga hissa qo'shishi mumkin. Bundan tashqari, o'g'il bolalar o'z jinslaridagi bolalar bilan qanday munosabatda bo'lishlari bilan qizlardan ancha farq qilishi mumkin. Misol uchun, o'g'il bolalar va qizlar, do'stlarni va do'stlar bilan muloqot uslublarini tanlashda turli xil yo'llarni tanlashlari mumkin, bu ularning ijtimoiylashuviga ta'sir qiladi, albatta.

Bolalarni tarbiyalayotgan muhit (oila yoki muassasa tarbiyasi) ularning ijtimoiylashuviga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Vasiy oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarga oila a'zolari tomonidan ko'proq e'tibor beriladi, g'amxo'rlik qilinadi va qo'llab-quvvatlanadilar, shuning uchun ular ijtimoiy vaziyatlarda o'zlarini ko'proq erkin his qilishlari va ijtimoiy faoliyatda jadal ishtirok etishlari mumkin, bu esa ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bolani o'z tarbiyasiga olgan oilalar, bolalarning ijtimoiylashuvini kuchaytirishi mumkin bo'lgan individual qiziqish va ko'nikmalarni rivojlantirishga ko'maklashishda faolroq bo'ladilar.

3-jadval


Psixologik parametrlarga omillarning ta'sirini o'rganish uchun regressiya tahlili natijalari.

Psixologik xususiyatlari (Bog'liq o'zgaruvchi)	Faktor (Mustaqil o'zgaruvchi)	Ahamiyatlilik darajasi (p)
Ekspressivlik	Oila turi	,043
Mustaqillik	Jins*Oila turi	,030
Nazorat	Jins	,017
	Jins*Oila turi	,007
Oila tizimning ko'rsatkichi	Oila turi	,034

3-jadvalda keltirilgan natijalar, bolalarning xulq-atvori va psixologik xususiyatlarining turli tomonlarini baholovchi omillar hamda parametrlar o'rtasida statistik jihatdan muhim bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. "Oila turi" omili va "Ekspressivlik" parametri ($p=0,043$) o'rtasidagi munosabat, oilaning turi (vasiy yoki internat) bolalarning xatti-harakatlaridagi ekspressiv xususiyatlarning jiddiyligiga ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu misolda, bolalarning tarbiya olish muhitiga qarab ularning hissiy ochiqligini ifodalashni aks ettirish mumkin. "Mustaqillik" parametri ($p=0,030$) bilan "Jins" va "Oila turi" omillarining o'zaro ta'siri, bola tarbiyalanayotgan oila turining bolaning mustaqillik ko'rsatkichi darajasiga ta'siri, ularning jinsiga qarab farq qilishi mumkinligini anglatadi. Ya'ni o'g'il bolalar va qizlar tarbiyalangan muhitga qarab o'zlarining mustaqilligini turlicha ifodalashlari mumkin. "Jins" omili ($p=0,007$) va "Jins" hamda "Oila turi" ($p=0,007$) omillarining "Nazorat" parametri bilan o'zaro aloqasi bola jinsining ahamiyatli ta'siridan dalolat beradi. Bolalarning xulq-atvorini nazorat qilish, shuningdek, oila turi bu ta'sirni yengillashtirishi mumkin. Bu o'g'il va qiz bolalar tarbiyalangan oila turiga qarab,

nazoratning turlicha natijalarini namoyon etishi mumkin. Oila tizimi ko'rsatkichi va "Oila turi" omili o'rtasidagi bog'liqlik, ($p=0,034$) oila turining oila tizimi xususiyatlariga ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu homiylik qiladigan oilalar va bolani o'z uyida tarbiyalayotgan oilalar faoliyati o'rtasida farq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Aniqlik kiritish uchun kurs davomida olingan natijalarni 1-3-rasmlarda taqdim etamiz.




1-rasm. Internat va vasiy oilalarida yashovchi bolalar o'rtasida Ijtimoiylashuvning turli ko'rsatkichlari bo'yicha Ekspressivlik parametrini qiyosiy tahlil qilish natijalari.

1-rasmda homiylik qiluvchi oilalar va o'z uy-joyida bola tarbiyalayotgan oilalarda ijtimoiylashuvning turli ko'rsatkichlari orasidagi farqlar ko'rsatilgan. Taqdim etilgan natijalarga ko'ra, turli ijtimoiylashuv darajasiga ega bo'lgan, vasiylik qiluvchi oilalardagi bolalar internatlardagi bolalarga qaraganda kamroq ifodalilikni namoyon qiladilar, ya'ni internat tarbiyalanuvchilari ko'pincha o'z his-tuyg'ularini ifoda etishda vazminligi yo'qligini va ma'lum darajada asabiylikni namoyon qiladi, chunki u bolalarda tashqaridan bo'ladigan ta'sirlarga sezgirlik darajasi past va ularda muammoli vaziyatlarda kuchli javob reaksiyasi paydo bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, bu vasiylik qilayotgan oilalardagi bolalarning ota-onalari bilan o'zaro munosabati internatda tarbiyalanayotgan bolalarga nisbatan ko'proq, yaqinroq va barqaror bo'lishi bilan bog'liq deb hisoblashimiz mumkin. Oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar o'zlarini yanada ishonchli va xavfsiz his qilishlari mumkin, bu ularga o'z his-tuyg'ularini yanada ko'proq nazorat qilishga va nazorat ostida ifodalashga imkon beradi.

So'z erkinligi cheklangan maktab internat tarbiyalanuvchilarida beqarorlik ko'proq bo'lishi mumkinligi aniqlandi. Murakkab hayot sharoitlarini boshidan kechirgan bolalarda oilalarda tarbiyalangan bolalarga nisbatan, tashvishlanish yoki asabiylik darajasi yuqori bo'ladi. Bu hissiy qiyinchiliklarni yengishga urinishlar

turli his va tuyg'ularning jadal sur'atlarda oshishiga olib kelishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, ekspressivlik yoki uning yetishmasligi, har doim ham salbiy holatni ko'rsatmaydi. Bu atrof-muhit ta'siriga va oldingi tajribalarga asoslangan tabiiy javob harakati bo'lishi mumkin. Bolalarning yashash farovonligini yaxshilash, ularning shaxsiy ehtiyojlariga e'tibor berish va his-tuyg'ularni sog'lom ifodalashi hamda boshqarishi uchun sharoit yaratishda kattalarning yordami talab qilinadi.

Ijtimoiylashuvning turli ko'rsatkichlariga ega bo'lgan va vasiylik qilayotgan oilada tarbiyalangan erkak hamda ayol vakillariga nisbatan Nazoratning namoyon bo'lishi o'rtasidagi farqlarni 2-rasmda ko'rishimiz mumkin.




2-rasm. Vasiylik oilalarida yashovchi o'g'il va qizlar o'rtasida turli darajadagi ijtimoiylashuvga ega bo'lgan Nazorat parametrini qiyosiy tahlil qilish natijalari.

2-rasmga ko'ra, vasiylik qilayotgan oilalarda ayol vakillarga nisbatan erkak vakillar ustidan nazorat o'rnatish ko'rsatkichlari yuqori. Shunisi e'tiborga loyiqki, vasiylik qilayotgan oilalarda ota va ona tomonidan kuchli nazorat mavjudligi uchun ijtimoiylashuv darajasi past. O'rtacha, yuqori ijtimoiylashuv darajasiga ega bo'lgan qizlar va o'g'il bolalarga nisbatan ular bir-biridan keskin farq qiladi. Olingan natijalarda, vasiylik qilayotgan oilalarda erkak vakillar ustidan ko'proq nazorat o'rnatilishini ko'rishimiz mumkin va buni bir necha omillar bilan izohlashimiz mumkin. Avvalo, ota va onalar tomonidan o'g'il bolalar va qizlaridan milliy, madaniy qadriyatlarining e'zozlanishini kutishi hamda ular kutganchalik natijalarini olmasligi va farzandlarning o'zini tutishi orasida ijtimoiy-madaniy farqlar bo'lishi ana shu omillarning biridir. Masalan, o'g'il bolalarning xatti-harakatlariga nisbatan nazoratning qat'iyroq bo'lishi, uning chetdan bo'ladigan nazoratni to'g'ri idrok etishiga ta'sir qilishi mumkin. Ko'pchilik hollarda o'g'il bolalar o'zlarining erkaklik va mustaqilligini namoyish qilish uchun katta ijtimoiy hamda madaniy bosimga duch kelishlari kuzatiladi.

Bundan tashqari, erkak va ayolning oiladagi o'g'ini bilan bog'liq stereotiplar, o'g'il va qizlarning nazoratni qanday qabul qilishlarida muhim o'rin tutishi mumkin. Agar jamiyat, o'g'il bolalarni mustaqil va kuchliroq bo'lishini kutib, nazoratni yanada kuchaytirsa, bola bu nazoratni tajovuzkor qabul qilishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, o'g'il bolalar va qizlarning alohida bo'lishi hamda mustaqillikka bo'lgan ehtiyojlari har xil bo'lishi mumkin. O'g'il bolalar ko'proq mustaqillikka va o'z qarorlarini nazorat qilishga intilishlari hamda ular yuqori darajadagi nazoratni qizlarga qaraganda kuchliroq qabul qilishlari mumkin. O'g'il bolalar ko'proq hamkorlik qilishlari va tashqi nazoratni to'g'ri qabul qilishlari mumkin. Shuningdek, nazorat tushunchasi, o'z-o'zini hurmat qilish va o'z-o'zini anglash bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. O'g'il bolalar va qizlarning oiladagi roli hamda mavqei qanday bo'lishi kerakligi haqida ularning orasida turli xil fikrlar bo'lishi va bu ularning nazorat qilish haqidagi tasavvurlariga ta'sir qilishi mumkin.

Ijtimoiylashuvning turli ko'rsatkichlariga ega bo'lgan va internat muassasalarida tarbiyalangan erkak hamda ayol vakillariga nisbatan nazoratning namoyon bo'lishi o'rtasidagi farqlarni 3-rasmda ko'rishimiz mumkin.



3-rasm. Internat muassasalarida tarbiya olayotgan o'g'il va qizlar o'rtasida turli darajadagi ijtimoiylashuvga ega bo'lgan Nazorat parametrini qiyosiy tahlil qilish natijalari.

Keyinchalik vasiylik ostidagi oilalardagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga e'tibor qaratamiz, chunki vasiylik ostidagi oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash biz uchun muhim ko'rinadi. Xususan, ota-onaga tarbiyasi parametrlarini tahlil qilish natijasida olingan xususiyatlarni o'rganish. Tarbiya jarayonida ona asosiy rol o'ynaganligi sababli, bizning e'tiborimiz ota-onalarni tarbiyalash uslublari va bolali onalar hamda bu xususiyatlarning bolalarning

ijtimoiylashuv jarayoni bilan bog‘liqligini o‘rganishga qaratilgan.
Mazkur natijalar 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Onalar va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir parametrlari hamda ularga ta’sir qiluvchi omillar bo‘yicha regression tahlil natijalari.

Psixologik xarakteristika (qaram o‘zgaruvchi)	Faktor (Mustaqil o‘zgaruvchi)	Ahamiyatlilik darajasi (p)
Avtonomlik-Nazorat (Ona)	Jinsi	,003
	Ijtimoiylashuvining Umumiy ko‘rsatkichi	,002
O‘zidan uzoqlashtirish – Qabul qilinish (Ona)	Oila turi	,005
Nomuvofiqlik- Muvofiqlik (Ona)	Jinsi	,017
Ota-onaning avtoritetligi (Ona)	Jinsi	,002
Onaning bola bilan munosabatlaridan qoniqishi	Jinsi*Oila turi* Ijtimoiylashuv	,020

4-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar o‘rtasidagi muhim munosabatlar quyidagi natijalarini ko‘rsatadi: 1) Onaning Avtonomlik – Nazorat parametr omillar bilan, nazorat qilish Umumiy ijtimoiylashuv indeksi ($p=0,003$) va omillarning o‘zaro ta’siri; Umumiy sotsializatsiya indeksi* Jins ($p = 0,002$); 2) Farzandning onasi tomonidan rad etish-qabul qilish parametri va “Oila turi” omili bo‘yicha ($p=0,05$); 3) Nomuvofiqlik – izchillik ona omili bilan Jins ($p=0,05$); 4) Jins omili bilan onaning vakolati parametri ($p=0,002$); 5) “Onaning bola bilan bo‘lgan munosabatlaridan qoniqishi” parametri bilan jins, oila turi va umumiy ijtimoiylashuv ko‘rsatkichining o‘zaro ta’siri ($p = 0,20$). Avtonomlik – ona nuqtai nazaridan nazorat va umumiy ijtimoiylashuv bali, onalar tomonidan baholangan avtonomiya – nazorat parametri va umumiy ijtimoiylashuv ko‘rsatkichi ($p=0,003$) o‘rtasidagi muhim bog‘liqlik, ota-onaning avtonomiya va bola ustidan nazorat qilish masalalari bo‘yicha pozitsiyasiga ta’sir qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bolalar ijtimoiylashuvining umumiy darajasi, ya’ni ota-onalarning farzandlariga mustaqillik berishlari yoki o‘z harakatlarini bolalar tomonidan nazorat qilishlariga qanchalik ruxsat berishlari, bolaning muloqot qilish va jamiyatga moslashish qobiliyatiga ta’sir qilishi mumkin.

“Oila turi” va “rad etish-qabul qilish”: Ona tomonidan “Rad etish-Qabul qilish” parametri hamda “Oila turi” ($p=0,005$) omili o‘rtasidagi muhim bog‘liqlik, onalar o‘z farzandlarini qanday qabul qilishlari va oila turiga bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi ($p=0,005$). Bolalarning vasiylik qiladigan oilalarda yoki uy sharoitida tarbiyalanishi, har xil turdagi oilalardagi onalarning tarbiya natijalarini kutishlari va

mas'uliyatlaridagi farqlarga bog'liq bo'lishi mumkin. "Mos kelmaslik – izchillik Ona" va "Jins": "Nomuvofiqlik – muvofiqlik onalar" uchun baholangan izchillik o'lchovi hamda jins omili ($p = 0,005$) o'rtasidagi munosabat onalarning ota-ona tarbiyasida izchillik darajasi haqidagi tasavvurlari farzandlarining jinsiga qarab farq qilishi mumkinligini ko'rsatadi. Ehtimol, onalar bir jinsdagi bolalarni tarbiyalashda, boshqa jinsdagi bolasiga nisbatan ko'proq izchil bo'lishi mumkin.

Onaning avtoritetligi va Jins: Onaning vakolati parametri va Jins omili ($r=0,002$) o'rtasida sezilarli bog'liqlik, onalar o'z farzandlarining jinsiga qarab turli darajadagi vakolatlarga ega bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu onalarning turli jinsdagi bolalarni tarbiyalashda obro'li ota-onalarning roli haqidagi tasavvurlariga ta'sir qilishi mumkin. "Jins va oila turi" xamda Umumiy ijtimoiylashuv omillarining, Ona-bola o'zaro munosabatidan qoniqishi bilan o'zaro ta'siri: bu omillar o'rtasida sezilarli bog'liqlik yo'qligi, ($r=0,20$) onalarning farzandlari bilan bo'lgan munosabatlaridan qoniqish darajasini anglatishi mumkin. Bu esa jinsga, oila turiga va ijtimoiylashuvning umumiy ko'rsatkichiga ko'p bog'liq emas. Bu shuni ko'rsatadiki, onalarning o'z farzandlari bilan o'zaro munosabatlaridan qoniqishlari, bu omillar bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, yanada individual va murakkab hodisa bo'lishi mumkin.


Shunday qilib, natijalar, ona va bola munosabatlarini shakllantirishda ona tarbiyasi uslubi, oila turi va bolaning jinsi kabi ko'plab omillarning o'zaro ta'sirining muhimligini, shuningdek, bolalarning ijtimoiylashuvi va onaning bolasi bilan o'zaro munosabatlardan qoniqish darajasining ta'sirini ko'rsatadi.

5-jadval

Vasiylik ostidagi oilalarda va internat muassasalarda tarbiyalangan bolalarning ijtimoiylashuv tahlil qilish natijalari
(n=189)

Oila turi	Past daraja (0-2 ball)		O'rta daraja (2,1-3 ball)		Yuqori daraja (3,1-5 ball)	
	Soni	%	Soni	%	Soni	%
Vasiy	44	36,0	53	43,4	31	25,4
Internat	28	41,7	31	46,3	8	11,9

5-jadvalda keltirilgan natijalarga ko'ra, tarbiya muassasalarida tarbiyalangan bolalarning ko'p hollarda ijtimoiylashtirish darajasi past va o'rta darajaga ega, vasiylik oilalarida tarbiyalanayotgan bolalarda esa ijtimoiy hayotga moslashuv darajasi ko'proq, ammo ijtimoiylashuvning past darajalari ham bor. Ular orasida o'rta ijtimoiylashuv ham hukmronlik qiladi. Mazkur farqlarning ahamiyatini ochib berish uchun ijtimoiylashuv parametrlarining tahlil natijalari 4-rasmda keltirildi.



4-rasm. Internat muassasalarida tarbiyalanuvchi va vasiy oilalarning ijtimoiylashuvi ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish natijalari.

4-rasmda keltirilgan natijalarga ko‘ra, homiylik qilayotgan oilalarning bolalari va muassasalarda tarbiyalangan bolalar o‘rtasidagi asosiy farqlar ijtimoiy faollikni baholash parametrlarida, shuningdek, ijtimoiy moslashuv tendensiyasida kuzatilganligi qayd etildi.

4-rasmda keltirilgan natijalar maktab-internatlardagi bolalar va homiylik qiluvchi oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar o‘rtasidagi farqlar mavjudligini, xususan, homiylik qilayotgan oilalarda tarbiyalangan bolalarning ijtimoiy faolligini baholanishi, internatdagi bolalarnikidan ikki baravar yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy faoliyat, odatda, ijodiy ifodada, irodaviy harakatlarda, boshqalar bilan o‘zaro munosabatda va boshqa xatti-harakatlarda namoyon bo‘ladi. Bu shaxsning ongli va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati hamda uning murakkab ijtimoiy-psixologik sifati bo‘lib, u bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi va sub’ektning atrofdagi ob’ektlar, jarayonlar va hodisalarga ta’sir darajasini yoki o‘lchovini belgilaydi hamda tavsiflaydi. Olingan natijalarni tushuntirish uchun bir nechta taxminlarni aytish mumkin. Birinchidan, bu vasiylik qilayotgan oilalardagi bolalarning ko‘pincha bir biri bilan yaqinroq bo‘lishi va qo‘llab-quvvatlovchi oila muhitida o‘ishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, bu ularning ijtimoiy faolligiga hissa qo‘shadi, ikkinchidan, vasiylar va farzand asrab oluvchilar, qoida tariqasida, bolalarga ko‘proq vaqt ajratishi va e’tibor berishlari mumkin. Shuningdek, bolalarga o‘zini ishonchli his qilishi va ijtimoiy faoliyatning turli shakllari bilan shug‘ullanishiga yordam beradigan hissiy yordam ko‘rsatadilar. Shu bilan birga, yuzaga keladigan har bir vaziyatning o‘ziga xosligini esda tutish kerak, chunki bu vaziyatlarning sabablari homiylik ostidagi oilalar va internatlarda farq qilishi mumkin.

Ijtimoiy moslashuv ko‘rsatkichidagi natijalar o‘rtasidagi ozgina farqlarga ham

e'tibor qaratishimiz mumkin: vasiylik oilalaridagi bolalar uchun bu ko'rsatkich maktab-internatlarda tarbiyalangan bolalarning ko'rsatkichlariga qaraganda bir oz yuqoriroqdir. Ushbu ko'rsatkich toifalar orqali tavsiflanadi, ya'ni: boshqalar bilan ijobiy muloqot va munosabatlar, o'zining tanlagan yo'lini topish qobiliyati, atrof-dagi voqelikni to'g'ri idrok etish, bularni homiylik qilayotgan oilalar farzandlari yaxshiroq tushunishadi deb taxmin qilishimiz mumkin. Bunday oiladagi farzandlar, atrof-muhitga shaxsiy fazilatlari tufayli, ta'lim va mehnat faoliyatiga osonroq moslashadi, shuningdek, dam olish va ko'ngil ochish uchun vaqt topadi, ko'proq mustaqil va o'ziga g'amxo'rlik qilishga qodir bo'ladi, o'z xatti-harakatlarini turli xil sharoitlarga osonroq moslashtira oladi. Hayotda uchraydigan turli vaziyatlar ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga yordam beradi. Buning sababi, homiylik qilayotgan oilalardagi bolalarning yashash sharoitlari maktab-internatlardagi bolalarning yashash sharoitlariga qaraganda yaxshiroq bo'lishidir. Shuningdek, o'zaro yaqin va qo'llab-quvvatlovchi oila muhiti hamda oila a'zolari o'rtasidagi ijobiy munosabatlarning mavjudligi muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvning asosiy sabablaridan biri deb taxmin qilishimiz mumkin.

Bundan tashqari, ko'rsatkichlardagi natijalar o'rtasidagi yengil farqlarga e'tibor qaratish lozim. Inson huquqlari me'yorlariga rioya qilish: vasiylik qilinayotgan oilalaridagi bolalar uchun bu ko'rsatkich maktab-internatlarda tarbiyalangan bolalarga tegishli bo'lgan ko'rsatkichlarga qaraganda bir oz yuqoriroqdir.

Kechki o'smirlik va yoshlik davri insonda axloqiy e'tiqod hamda qadriyatlarining rivojlanishidagi muhim bosqichdir. Ular mansub bo'lgan jamiyatda yoshlarning kelajakdagi axloqiy madaniyati me'yoriy axloq sohasida qanday tanlov qilishiga bog'liqdir. Shu sababli, zamonaviy dunyoda o'qituvchilar va ota-onalarning asosiy vazifalaridan biri, bu yoshlarda axloqiy e'tiqod va qadriyatlarni shakllantirish jarayoniga ta'sir qilishdir. Bu jarayon shaxs tomonidan axloqiy tamoyillarni, me'yorlarni, qoidalarni, shuningdek, modellar va ideallarni ongli ravishda izlash jarayonini o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonning natijasi, axloqiy pozitsiyaning rivojlanishi bo'lib, u o'zini nafaqat belgilangan axloqiy tamoyillar va e'tiqodlarni o'rganishda, balki shaxs tomonidan shakllantiriladigan shaxslararo munosabatlar tizimini tahlil qilish orqali ham namoyon bo'ladi.

Vasiylik qiladigan oilalarda hamda internat muassasalarida tarbiya olayotgan bolalarning ijtimoiylashuv ko'rsatkichlari va oilaviy munosabatlarni o'rtasidagi bog'liqni o'rganish uchun Spirmen korrelyatsion tahlilining natijalari 6-jadvalda keltirilgan.

6 -jadval

Vasiylik qiluvchi oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi natijalari hamda ota-onalarning tarbiya uslublarining korrelyatsion tahlili (n=116)

O'zgaruvchilar	Ijtimoiy-lashuv	Ijtimoiy moslashuvi	Mustaqillik	Faoliyatga yo'naltirilganligi	Axloqlilik
1	-0,28*	0,01	-0,34**	0,19	0,21
2	0,17	0,22	0,21	0,29*	0,22

3	0,40**	0,34**	0,36**	0,36**	0,29*
4	0,36**	0,34**	0,29*	0,34**	0,28*
5	0,24	0,15	0,42**	0,19	0,17
6	-0,34**	0,24	-0,36**	0,19	0,24
7	0,17	0,21	0,15	0,34**	0,22
8	0,36**	0,34**	0,34**	0,29**	0,29*
9	0,24	0,22	0,21	0,29*	0,17
10	-0,22	0,15	0,19	-0,42**	0,21

Eslatma: 1 – Ota-ona mo‘tabarligi; 2 – Norozilik – Rozilik; 3 – Rad etish – Qabul qilish, 4 – Emotsional masofa – Emotsional yaqinlik; 5 – Avtonomiya – Nazorat, 6 – Talabsizlik - talabchanlik; 7 – Tarbiya jarayonini ketma-ketligi – tarbiya jarayonning tartibsizligi; 8 – Hamkorlikning yo‘qligi – Hamkorlik; 9 – Ota-ona / bola bilan munosabatlardan qoniqish; 10 – Yumshoqlik – Jiddiylik.

Tahlil natijasida olingan ma’lumotlar, oilaviy munosabatlarning ko‘p jihatlarini aniqlashga imkon berdi. Ota-onalar tomonidan bolaga beriladigan tarbiyaning quyidagi xususiyatlari alohida e’tiborga loyiqdir: oilada bolaga qo‘yiladigan talablar soni, tarbiya jarayonida bolaning himoyalani darajasi, ota-onaning tarbiya berish uslubining barqarorligi, shuningdek, bola ehtiyojlarini qondirish darajasi. Olingan natijalarga ko‘ra, bola tarbiyalayotgan vasiy oilalardagi ota-onalarning aksariyati “minimal sanksiyalar” ko‘rsatkichi bo‘yicha jiddiyligidan tashqari, boshqa ko‘rsatkichlarda hech qanday og‘ishlarsiz, barqaror tarbiya uslubiga ega.

“Ijtimoiy moslashuv” kichik o‘lchovli ko‘rsatkichda – “Rad etish – qabul qilish”, “Hissiy yaqinlik – hissiy masofa”, “Hamkorlik – hamkorlikning yetishmasligi” kabi ota-onalarning bola tarbiyasidagi ko‘rsatkichlari orasida ijobiy munosabat mavjud. Ko‘rinib turibdiki, ota-onalar tarbiya jarayonida bolaga nisbatan hissiy jihatdan faol pozitsiyani namoyon qilishlari – ular o‘rtasida ishonchli munosabatlarning shakllanishiga, bu munosabatlarning mustahkamlanishiga va ular orasidagi munosabatlarning ochiq bo‘lishiga yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirib, jamiyatga moslashishi uchun qulay muhit yaratadi.

“Mustaqillik” kichik o‘lchovida, “Ota-ona yakkahokimligi”, “Rad etish – qabul qilish”, “Avtonomiya – nazorat”, “Talabchanlik – talabsizlik”, “Hamkorlik – hamkorlikning yo‘qligi”, “Muloyimlik – qattiqqo‘llik” kabi ota-onalarning bola tarbiyasidagi ko‘rsatkichlari orasida ijobiy munosabatlar mavjud. Bu natijalardan ko‘rinib turibdiki, ota-onalarning bolalariga bo‘lgan ishonchini namoyon qilishlari va bolaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiya qilishlari bolaning mustaqil shaxs sifatida rivojlanishiga imkon berib, bolaning ijtimoiylashuvini tezlashtiradi. Farzandlariga ishonch bildiradigan va ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga oladigan ota-onalar bolalariga yanada mustaqil hamda o‘ziga ishongan bo‘lishiga yordam beradilar, bu esa, o‘z navbatida, bolaning umumiy ijtimoiylashuv darajasining oshishida namoyon bo‘ladi.

“Faoliyatga yo‘naltirish” kichik o‘lchovida, “Rad etish – qabul qilish”, “Hissiy masofa saqlash – hissiy yaqinlik”, “Muvofiqlik – nomuvofiqlik”, “Hamkorlik –

hamkorlikning yo‘qligi” kabi ota-onalarning bola tarbiyasidagi ko‘rsatkichlari o‘rtasida ijobiy munosabatlar mavjud. “Yumshoqlik – jiddiylik” ko‘rsatkichlarida esa salbiy munosabat mavjud. Ko‘rinib turibdiki, bu ko‘rsatkichlar bolaning har qanday faoliyatni amalga oshirishda motivatsiya bo‘lishi uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bolaning biror bir harakatni amalga oshirish uchun qilgan urinishlari ota-onasi tomonidan qanchalik to‘g‘ri qabul qilinishiga va ular tomonidan qanday baxolanishiga bog‘liqdir. Ota-onasi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan va ularning doimiy yordamlarini his qilgan bolalar hayotda faol pozitsiyalarni egallashlari mumkin.

“Axloqiy ko‘rsatkichlar” kichik shkalasida ota-onaning bola tarbiyasidagi “Rad etish – qabul qilish”, “Hissiy masofa – hissiy yaqinlik”, “Hamkorlik – hamkorlikning yo‘qligi” kabi ko‘rsatkichlar bilan ijobiy munosabat mavjud. Buning sababi, bolalarni ota-onalarida ko‘rgan asosiy qadriyatlar va axloqiy qoidalarni qabul qilib, ko‘rganlarini takrorlashga moyil ekanliklari bo‘lishi mumkin.

Olingan natijalarni batafsil tahlil qilganimizda, vasiy oilalardagi onalar o‘z majburiyatlarini bajarish jarayonida, bolalarga jiddiy talablar qo‘yish bilan birga g‘amho‘rlik qilishlari bilan ham ajralib turadilar. Otalar esa ko‘proq ta‘qiqalar belgilashlari bilan ajralib turadilar, ammo otalar jazo choralarini ishlatmaydilar. Farzandlarining ehtiyojlarini qondirish masalasida ota-onalarning aksariyat ko‘p qismining fikri bir xil: ular bolani har bir xohishini bajarishga va hamma narsadan xursand qilishga intilmaydilar, lekin shu bilan birga, ular o‘z farzandlarining asosiy ehtiyojlarini e‘tiborsiz qoldirmaslikka harakat qiladilar.

Ota-onalarning bolalar bilan munosabatlari o‘lchovlari alohida qiziqish uyg‘otadi. “Qabul qilish” shkalasi bo‘yicha ko‘rsatkichlarni to‘g‘ri qabul qilish bu eng to‘g‘ri yo‘ldir. Aksariyat ota-onalar o‘smirlarni qanday bo‘lsalar, shunday qabul qiladilar, unga hamdard bo‘ladilar, bolaning o‘ziga xos xususiyatlarini hurmat qiladilar, u bilan ko‘p vaqt o‘tkazadilar, uning qiziqishlari va rejaları bilan tanishib, ma‘qullaydilar.

“Hamkorlik” shkalasi bo‘yicha qadriyatlarni taqsimlash past darajadagi bahoga yaqinroq bo‘lib, bu toifadagi ota-onalar, o‘smirlarga mehribon, lekin har doim ham ularga hamdard bo‘la olmaydilar va to‘liq ishonmaydilar. Sabab bo‘lganida, o‘z farzandlari bilan faxrlanish tuyg‘usini his qiladilar, shu bilan birga uning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini tanqidiy baholaydilar. Bunday ota-onalar ba‘zan o‘smir farzandlarining tashabbuskorlik va mustaqilligini rag‘batlantiradilar.

“Simbioz” shkalasi bo‘yicha ko‘rsatkichlar haddan tashqari oshirilgan darajaga ega bo‘lib, ota-ona va bola munosabatlari juda yaqinligini hissiy yaqinlik mavjudligi ko‘rsatadi.

“Avtoritar giperijtimoiylashuv” shkalasi bo‘yicha ko‘rsatkichlar haddan tashqari oshirilgan darajada, ya‘ni bolaning xatti-harakatlari juda qattiq nazorat ostida ekanligini ko‘rsatadi. Bunday ota-onalar o‘z farzandlaridan itoatkorlik va tartib-intizomni talab qiladigan, ko‘pincha o‘smirga o‘z xohish-istaklarini o‘tkazishga harakat qiladigan, bolalarining ijtimoiy hayotdagi yutuqlarini, o‘ziga xos xususiyatlarini, odatlarini, fikr va his-tuyg‘ularini diqqat bilan kuzatib borishlari bilan tavsiflanadilar. Bu ota-onalar o‘smirlarning o‘z irodasini namoyon qilishini qabul

qilmaydilar.

Umuman olganda, natijalar shuni ko'rsatadiki, ota-ona va bolalarning o'zaro munosabatlari, bolalarning ijtimoiylashuvida va axloqiy rivojlanishining turli jihatlarini shakllantirishda muhim o'rin egallar ekan.

Olingan ma'lumotlar o'tkazilgan suhbatlar natijalariga mos kelib, ko'pchilik vasiylik qiluvchi oilalar va farzand asrab oluvchilar, shkalalar ko'rsatkichlari bo'yicha yuqori baholanganliklari aniqlandi, bu ikkala guruhdagi kattalarning xulq-atvorining to'g'riligi va voqelikni to'g'ri qabul qilishlarini bildiradi. Ya'ni bu ota-onalar farzandlari bilan doimiy muloqotda bo'lib, bolani suhbatlashishga qiziqtirib, unga qiziqarli bo'lgan masalalar haqida gapirishga o'rgatib, uning nutqi rivojlanishiga e'tibor berib, bola uchun qiziqarli bo'lgan mashg'ulotlarni taklif qilib, bolaning ehtiyojlariga e'tiborli bo'ladilar.

Dissertatsiyaning **“Vasiylik qiluvchi oilalarni ijtimoiy-psixologik qo'llab – quvvatlash dasturi”** deb nomlangan **uchinchi bobida** yetim bolalarning hayotda samarali ijtimoiylashuv jarayoniga muhim hissa qo'shadigan – vasiy oilalarni psixologik tayyorlash va o'qitishning nazariy hamda uslubiy asoslari keltirilgan. Ushbu bobda xorijiy mualliflardan Ye.G.Doorseva, Ye.B.Juykova, M.B.Kapilina (Pichugina), T.Z.Kozlova, N.I.Kondrateva, Ye.Yu.Korjova, V.S.Muxina, T.D.Panyusheva, V.V.Oleyniklarning olib borgan ilmiy ishlarida ko'rsatilgan, vasiy oilalarni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash ishlarini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan. Ushbu bobda yetim bolalarni o'z tarbiyasiga olgan vasiy oilalar va bola asrab olgan oilalarning vakolatlarini belgilash hamda bolalarni tarbiyalash bo'yicha quyidagi tadbirlar dasturi taklif etiladi: bolalarning biologik, ijtimoiy, psixologik mukammal rivojlanishi, bola + ota hamda ona + aka va singil munosabatlari tizimini barqarorlashtirish, bolaning asosiy axloqiy o'zgarishlarini hisobga olgan holda tarbiyalash, bolaga umumiy qadriyatlarni singdirish, shaxsning “ijtimoiy qabul qilinishini”, hayotga moslashishini yengillashtirish, bolaning faolligini, mustaqilligini va axloqiy tarbiyasini yetarlicha bo'lishini ta'minlash kabi masalalarga oid dasturlar.

Vasiylik qiluvchi oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini va yetim bolalarning ijtimoiylashuv jarayonida ushbu xususiyatlarning tutgan o'rnini o'rganish bo'yicha olib borilgan keng qamrovli ishlarning natijalariga asoslanib, biz o'quv dasturini yaratish zarurligini aniqladik. Bu o'quv dasturining asosiy e'tibori, birinchi navbatda, bola asrab olgan ota-onalarning, vasiy oilalarning xususiyatlari, ularning bola tarbiyasidagi psixologik yondashuvlari, bolalarning ijtimoiylashuv jarayonidagi ahamiyatiga qaratilgandir.

Ishlab chiqilgan dastur yetim bolalarni tarbiyalashga tayyorlangan va bevosita tajribaga ega bo'lgan oilalarga, (bolaga oila o'rnini bosuvchi barcha turdagi oilalarga) farzand asrab oluvchilarga, vasiy va homiy oilalarga, shuningdek, ota-ona qaramog'isiz qolgan yetim bolalar bilan shug'ullanuvchi maxsus internat muassasalariga, oilaviy bolalar uylariga yetim bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislarga, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga taalluqlidir.

O'quv dasturining mazmuni bolalar huquqlarini himoya qilish, bolalarni himoya qilish ishlarini boshqarish kabi fanlar bilan muvofiqlashtirilgan bo'lib, ota-ona va bola

o'rtasidagi o'zaro axloqiy munosabatlarning xususiyatlari, shuningdek, aka-uka, opa-singil munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari, madaniy va etnik muammolarga oid mavzularni o'z ichiga oladi. Kurs besh bo'limdan iborat bo'lib, 40 soatga mo'ljallangan.

O'quv kursining asosiy maqsadi – kurs tinglovchilariga, ya'ni homiylik va vasiylik qiluvchi oilalarga o'zlari qabul qilgan bolalar va o'smirlar bilan ishlash bo'yicha bilim hamda amaliy ko'nikmalarni berish, ularga bolalar bilan ishlashda va o'zaro munosabatlarda zarur bo'ladigan kompleks yondashuv asoslarini o'zlashtirishga, shuningdek, maktab-internat o'quvchilari, oilaviy uylarda tarbiyalanayotgan bolalarni atrofdagilar bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatish va ularni qo'llab-quvvatlash xususiyatlarini o'rgatishdan iborat.

Ushbu treningning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. Trening tinglovchilarini bolalar va o'smirlar bilan ish olib borishni tashkil etish uchun zarur bo'ladigan ijtimoiy ish faoliyati bilan tanishtirish, yoshga taalluqli psixologiya va oila psixologiyasi bo'yicha asosiy bilim hamda ko'nikmalarni berish;

2. Trening tinglovchilariga, maxsus internat tarbiyalanuvchilari, oilaviy bolalar uyining tarbiyalanuvchilari, homiylik va vasiylik qiluvchi oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarga g'amho'rlik qilish hamda o'zaro munosabatlarning asosiy jihatlari haqida bilim berib, bu jarayonning barcha o'ziga xos xususiyatlarini va omillarini hisobga olib, tinglovchilarda ko'nikmalarni shakllantirish.

3. Yetim bolalar, ayniqsa, vasiylik va homiylik qiluvchi oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar bilan ishlashni tashkil etishning asosiy xususiyatlarini ko'rib chiqish;

4. Trening tinglovchilarining internat tarbiyalanuvchilari bilan muloqot qilishda boshlang'ich ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, internat tarbiyalanuvchilarining axloqiy qadriyatlar va tamoyillarni o'rganishlariga hissa qo'shish;

5. O'smirlar bilan ishlashda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning asosiy xususiyatlarini, homiylik va vasiylik qiluvchi oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi hamda ijtimoiy moslashuviga yordam beradigan ko'nikmalarni ochib berish.

Trening tadbirlarining asosiy mavzulari quyidagicha: Bola rivojlanishida uning huquq va ehtiyojlari; Bolalarning ehtiyoj va huquqlarini aniqlash; Bolalar, ota va ona, aka va singil o'zaro munosabatlari; Axloqiy va madaniy qadriyatlarining asosiy jihatlari; O'smirlar bilan o'zaro munosabatlar va ular bilan ishlash xususiyatlari; "O'smirlilikning" asosiy muammolari; O'smirlarning atrofdagi odamlar bilan o'zaro xavfsiz munosabati.

O'quv trening mavzularining har biri 4-8 soatga mo'ljallangan bo'lib, kirish qismi, mavzuga mos keladigan qisqa ma'ruza material, amaliy malakalarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar, shuningdek, yakuniy qismlardan iborat. Tayyorlangan o'quv dasturining mazmuni, o'smir yetimlarning ijtimoiylashuvi jarayoniga ta'sir qiluvchi ota-ona va bola munosabatlarini yaxshilash jarayoniga har tomonlama ta'sir ko'rsatishga imkon beradigan individual, juft bo'lib va guruhli ish shakllarini o'z ichiga oladi.

Mavzularning har birida homiylik ostidagi oilalarda ijobiy munosabatlarni

rivojlantirishning muayyan mexanizmlari mavjud: ota-onalar va ushbu oilada tarbiyaga olingan bolalar o'rtasida, ota-ona qaramog'isiz qolgan birodarlar, shuningdek, ushbu oilaga olingan bolalar, tarbiyalanuvchilar o'rtasida ijobiy munosabatlarni o'rnatish asosiy maqsad qilib olingan. Bundan tashqari, vasiylik va xomiylikka olingan, alohida xususiyatlari bilan ajralib turadigan o'smirlarning, o'tish davri masalalari ham ko'rib chiqildi. Shuningdek, oilaviy munosabatlarning diniy va etnik masalalari alohida mavzu bo'lib, bu mavzuga alohida e'tibor berilgan. Bolalarning boshqa odamlar bilan munosabatlari, jumladan, ishonchli va xavfsiz munosabatlarni shakllantirishning asosiy jihatlari, gender ta'limi asoslari bilan bog'liq masalalar ham alohida ahamiyatga ega.

O'quv treningi mexanizmlari sifatida quyidagi komponentlar ko'rib chiqildi: Bola rivojlanishi, Bola rivojlanishida o'zaro munosabatlarning ahamiyati, Bolalarning ehtiyojlari va huquqlarini aniqlash, Bola hayotida oilaning ahamiyati, Birodarlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, O'smirlarda muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish, Bolalarga nisbatan kamsitishning oldini olish, Bolalarni tarbiyalashda asosiy madaniy, etnik va diniy qadriyatlar, O'smirlar bilan o'zaro munosabat va ular bilan ishlash xususiyatlari, "O'smirlik"ning asosiy muammolari, Boshqalar bilan xavfsiz muloqot.

Ushbu o'quv dasturi Respublika bolalarni ijtimoiy moslashtirish markazida, "Biz birgamiz" vasiy ota-onalar klubida o'tkaziladigan muntazam uchrashuvlar doirasida shakllantirilgan va bu dasturni amalga oshirish uchun qabul qilingan.

XULOSA

Bizning tadqiqotimiz natijasiga asoslanib, homiylik ostidagi oilalardagi bolalarning ijtimoiylashuvi yuqori darajaga ega ekanligini aytish mumkin, bu ota-onalarning o'z farzandlariga ko'proq e'tibor berishini bilan bog'liq, deb o'ylashimiz mumkin, shuningdek, ikkala ota-onaning bolani ta'lim-tarbiya jarayonida ham faol pozitsiyasi natijasida ham bo'lishi mumkin. Internat sharoitlarida bir nechta bolalarni hayotga jalb qilishni o'z zimmasiga olgan tarbiyachilarning, ota-onalarning funksiyalarini qabul qilishi tufayli ba'zi qiyinchiliklar mavjud bo'lib tuyuladi, bu esa, o'z navbatida, ijtimoiylashuv ko'rsatkichlarining pasayishiga olib keladi. Eksperimental va nazorat-diagnostika ishlari jarayonida ota-onalar va bolalar o'rtasida ishonchli munosabatlarni rivojlantirish uchun keng qamrovli ishlarni amalga oshirish zarurligi haqidagi taxminimiz asoslanadi.

Yetim bolalarni ijtimoiylashtirish jarayonida vasiylik qiluvchi oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari aniqlandi. Tadqiqotlarimiz natijalariga asoslanib, biz quyidagi xulosalarni chiqaramiz:

1. Qizlarda shaxs ijtimoiylashuvining nisbatan yuqori sur'atlari, ehtimol, yoshga bog'liq aqliy rivojlanish bilan bog'liq bo'lishi mumkin (chunki qizlarning psixologik rivojlanishi o'g'il bolalarga qaraganda bir oz erta sodir bo'ladi), muloqot qobiliyatlarining yanada yorqin namoyon bo'lishi, shuningdek, jamoatchilik fikr omili, unga ko'ra jamiyatda qizlarda muloqot qilish ko'nikmalarini ijtimoiylashtirish va rivojlantirish o'g'il bolalarga qaraganda ko'proq qo'llab-quvvatlanadi.

2. Homiylik ostidagi oilalarda bolalar ustidan Nazoratning yuqori darajadagi ko'rsatkichlari mavjud bo'lib, bu ota-onalarning o'z farzandlariga ko'proq e'tibor berish istagi bilan bog'liq bo'lib, ikkala ota-onaning ham tarbiyadagi faol pozitsiyasining natijasi bo'lishi mumkin. Internat sharoitlarida bir nechta bolalarga ota-onalik qilish mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan tarbiyachilarda ma'lum qiyinchiliklar mavjud bo'lishi turgan gap, bu esa, o'z navbatida, Nazoratning pastroq darajada bo'lishiga olib keladi. Ushbu ko'rsatkich, ya'ni Nazorat parametri – shaxsiy rivojlanishning intizom kabi tarkibiy qismini shakllantirish uchun muhimdir, uning mavjudligi bolaning ijtimoiylashuvini mustahkamlash va takomillashtirish yo'lida muhim bo'g'indir.

3. Natijalarni tahlil qilganimizda, Vasiylik qiluvchi oilalarda tarbiyalanayotgan qizlarga qaraganda o'g'il bolalar ustidan nazoratning yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Olingan natijalar o'smir respondentlarning javoblari asosida kelib chiqqanini tushunishimiz kerak, ya'ni o'g'il bolalar o'zini ko'proq mustaqil hisoblagani tufayli, ota-ona tomonidan bo'ladigan nazoratni kuchli deb bilishadi, qizlar uchun esa bu nazorat darajasi to'g'ri va adekvat sifatida qabul qilinadi. Ko'rinib turibdiki, Nazorat ko'rsatkichidagi o'g'il bolalar va qizlar o'rtasidagi farqlar, nazoratga bo'lgan turli xil munosabatlar tufayli paydo bo'ladi, bu bizning fikrimizcha, madaniy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin (qizlar o'g'il bolalarga qaraganda o'zlariga nisbatan jiddiyroq munosabatda bo'lishadi).

4. Homiylik qiluvchi oilalarda yetim bolalar ko'proq ijtimoiylashadi. Mutaxassislar qiyin ijtimoiylashuv deganda, bolaning ma'lum bir ijtimoiy rolni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar majmuasini tushunadilar. Ushbu o'ziga ajratilgan rollarni o'zlashtirib, inson ijtimoiylashadi, shaxsga aylanadi. Inson rivojlanishi uchun zarur bo'lgan, oila, do'stlar, qo'shnilar va boshqa yaqin insonlar bilan oddiy aloqalarning yo'qligi sababli bola turli xil manbalardan olgan ziddiyatli ma'lumotlar asosida rivojlanib, shaxs sifatida to'liq shakllana olmasligiga olib keladi.

5. Homiylik ostidagi oilalardagi bolalar, internatdagi bolalarga qaraganda insoniy his-tuyg'ularini bosiqroq namoyon qiladilar. Internat tarbiyalanuvchilari ko'pincha o'z his-tuyg'ularining namoyon bo'lishida o'zini tuta olmaslikni va ma'lum darajada asabiylikni namoyon qiladilar, chunki ularda tashqaridan bo'ladigan ta'sirlarga sezgirlik darajasi past, tashqaridan biror bir ta'sir bo'lganida, ularda keskin reaksiya paydo bo'ladi.

6. Vasiylik oilalarida tarbiyalanayotgan o'g'il va qiz bolalar o'rtasida mustaqillik borasida farqlar mavjud: vasiylik oilalarida o'g'il bolalarning mustaqillik darajasi qizlarnikidan yuqori. Ehtimol, bu natijalar rollarni an'anaviy taqsimlash (instrumental va hissiy) bilan bog'liq bo'lishi mumkin, unga ko'ra mustaqillik o'g'il bolalarda tarbiya jarayonida o'sadi va qizlarda kamayadi. Shu bilan birga, mustaqillik ham ijtimoiylashuv rivojlanishining juda muhim ko'rsatkichi ekanligini tushunish muhimdir, chunki u boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarning tabiatini, mustaqil ravishda aloqa o'rnatish va ijtimoiy faol bo'lish qobiliyatini shakllantiruvchi qism sifatida bo'lishi mumkin.

Bolalarning ijtimoiylashuvi va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlariga qo'shimcha ravishda, fokus-guruhlar tomonidan olingan boshqa

muhim natijalarni ham ta'kidlash biz uchun muhim ko'rinadi.

7. Tarbiyachilar ta'lim faoliyati jarayonida, bolalarni nazorat va g'amxo'rlik qilishni o'zlari uchun juda foydali deb biladilar, o'z ishlaridan zavqlanishlari esa, bolalarning nojo'ya xatti-harakatlari tufayli sust bo'lishi mumkin.

8. Tarbiyachilar ko'p vaqt sarflanishiga qaramay, norasmiy ta'lim faoliyati va bolalarga qarashni yoqtirishadi, lekin tozalash ishlarini yoqimsiz deb bilishadi.

Dastur asosida bolalar va vasiylar o'rtasida ishonchli munosabatlarni shakllantiradigan, vasiylik oilalarida bolalarning samarali moslashishiga, bolalarning ijtimoiylashuviga hissa qo'shadigan o'quv dasturi, shuningdek, tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalari va ular asosida tuzilgan umumiy xulosalar quyidagi amaliy **tavsiyalarni** taklif qilish imkonini berdi:

1. Bolani vasiylikka olmoqchi bo'lgan shaxslarni o'qitish dasturini takomillashtirish maqsadida o'quv dasturini joriy etish zarurati. Ushbu o'quv dasturining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilish bilan bog'liq jihatlarni ochib berish, bolalar va ota-onalar o'rtasidagi psixologik munosabatlar, aka-uka va opa-singillar o'rtasidagi munosabatlarni nafaqat bolalar nuqtai nazaridan ochib berish, balkim ularning o'zaro ta'sirining o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, barcha oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning etnik, madaniy va diniy tomonlariga tegishli masalalarini ochib berish;

2. Bolalarni vasiylik, homiylik qiluvchi, asrab oluvchi va boshqa turdagi oilalarda yashashga moslashtirish jarayonini yengillashtirish maqsadida, mahalla qo'mitalari negizida yetim bolalarni o'z tarbiyasiga olgan oilalarga, maxsus ijtimoiy xodimlarni yollash hamda bola asrab olgan oilalarga va bolaga asosiy xizmatlar ko'rsatishni nazarda tutuvchi bolalarni himoya qilish qo'mitalari kabi aniq tuzilmalarni yaratish, homiylik qilayotgan oilalarni rag'batlantirish.

3. Farzand asrab olgan oilalarda, bolalarga yetarli darajada parvarish qilishni baholashning tizimlashtirilgan amaliyoti, mezonlari va mexanizmlarini ishlab chiqish hamda joriy etish, bu jarayonda qat'iy va tegishli nazoratni tashkil etish, nazoratning samaradorligini monitoring qilish va baholash imkonini yaratish.

4. Vasiylar va farzandlikka oluvchilar bilan "Vasiylar va farzandlikka oluvchilarning huquq va majburiyatlari", "Voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish", "Ota-ona qaramog'isiz qolgan o'smirlarning shaxsiy munosabatlarining xususiyatlari" kabi mavzularda muntazam uchrashuvlar tashkil etish, ota-onalar va bolalar o'zaro bir-birini yaxshiroq tushunishi uchun, oila a'zolarining har birining tutgan o'rni va mas'uliyatini o'zlashtirish.

5. Oila birligini kuchaytirish bo'yicha aniq tashabbuslarni ishlab chiqish, ya'ni bolalarni tarbiyalash usullarini o'rgatish, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish, profilaktik strategiya sifatida guruhlar va jamoatchilik yordami, ijtimoiy, psixologik-pedagogik xizmatlarni jalb qilgan holda oila, bolalar, maktablar bilan bog'liq muammolarni ochib berishga qaratilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari tashkil etish va ularni asosiy ta'lim tizimlariga joriy etish.

**УЧЕНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ
PhD.03/30.12.2021. P.01.07 ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
УЗБЕКИСТАНА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

ТУРАКУЛОВА АЗИЗА САНДЖАРОВНА

**ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ
ОСОБЕННОСТЕЙ ОПЕКУНСКИХ СЕМЕЙ НА
СОЦИАЛИЗАЦИЮ ДЕТЕЙ-СИРОТ**

19.00.05 – Социальная психология. Этнопсихология

**АВТОРЕФЕРАТ ДОКТОРСКОЙ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ПСИХОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2023

Тема диссертации на соискание степени доктора философии (PhD) по психологическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией Республики Узбекистан под B2021.2.PhD.P281

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации доктора философии (PhD) на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyo.net/uz).

Научный руководитель: **Мухамедова Дильбар Гафурджановна**,
доктор психологических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Абдуллаева Шоира Хамидовна**
доктор психологических наук, профессор

Хрулнова Гелена Вячеславовна
кандидат психологических наук

Ведущая организация: **Каршинский государственный университет**

Защита диссертации состоится _____ 2023 года в ____ часов на заседании Ученого совета PhD.03/30.12.2021.P.01.07 при Национальном университете Узбекистана. (Адрес: 100174, город Ташкент, улица Университетская, 4. Национальный университет Узбекистана, здание факультета Социальных наук, 4-ый этаж, кабинет 409. Тел.: (+99871) 246-52-74; факс: (+99871) 246-53-21, (+99871) 246-02-04; e-mail: nauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована под номером 159). (Адрес: 100174, город Ташкент, улица Университетская, 4. НУУз, Главный учебный корпус, отсек «В», 2-ой этаж, кабинет 217. Тел.: (+99871) 246-67-71).

Автореферат диссертации разослан _____ 2023 года
(протокол реестра рассылки под №__ от _____ 2023 года)

У.Б.Шамсиев

Заместитель председателя Ученого совета по присуждению ученых степеней, доктор психологических наук (DSc), доцент

А.И.Расулов

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор психологических наук (DSc), профессор

Н.С.Сафаев

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор психологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире все большее внимание уделяется вопросу социальной защиты, защите прав детей, созданию необходимых условий для их биологического, социального и психологического развития. В частности, по результатам исследований, проведенных Детским фондом ООН ЮНИСЕФ и Агентством США по международному развитию, показано, что особенности развития детей, живущих с другими людьми, а не с родителями, отличаются от детей, живущих с своих родителей по многим показателям¹. Это создает необходимость разработки грамотного подхода к определению детей в семье, исходя из социально-психологических особенностей как семей, принимающих детей под опеку, так и самих детей. Поэтому исследование социализации детей-сирот, их социально-психологических особенностей, интеграции детей в семью остается одной из актуальных проблем.

Мировые образовательные и научные подходы, показывают, что дети, живущие с другими людьми, а не со своими родителями, имеют иные особенности развития, чем дети, живущие с родителями. Качество воспитания детей является основным фактором, определяющим благополучие и благополучие ребенка, и оно сопровождает развитие как в детстве, так и при переходе к взрослой жизни. Кроме того, большинство исследователей в своих работах подчеркивают негативное влияние отсутствия родительской заботы на развитие ребенка, в том числе физическое, психофизиологическое, эмоциональное, психологическое, социальное и т. д., к которому они во многом не готовы. в самостоятельной жизни они сталкиваются с проблемами профессионального направления, создания полноценной семьи, определения места социализации в жизни.

В последние годы в новом Узбекистане создана нормативно-правовая база материальной и моральной поддержки населения, нуждающегося в социальной защите: «...приоритеты подготовки детей, нуждающихся в социальной защите, к самостоятельной жизни путем реализации единой государственная политика в области социальной защиты приобретает все большее значение...»². Поэтому была принята программа по утверждению национальной стратегии по деинституционализации системы устройства детей, оставшихся без попечения родителей, на 2023-2030 годы. Это означает сокращение количества специализированных образовательных учреждений, возвращение детей в семьи, а также постепенную передачу деятельности домов «Мехрибонлик» детским городкам и другим альтернативным формам социальных учреждений, открытие новых детских домов семейного типа для

¹http://www.unicef.org/childfamily/index_24511.html. USAID From the American People. Displaced Children and Orphans Fund, 2008. Available from URL: http://www.usaid.gov/our_work/humanitarian_assistance/the_funds/dcof/index.html

²Указ Президента Республики Узбекистан, от 28.01.2022 г. № УП-60 «О СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА НА 2022 — 2026 ГОДЫ»// <https://lex.uz/docs/5841077>

детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей. родительской опеки, и в связи с этим определены задачи по прекращению деятельности домов «Меҳрибонлик». Ведется системная работа по организации курсов повышения квалификации для граждан, изъявивших желание учиться на курсах приемных родителей. Поэтому актуальность темы исследования обусловлена необходимостью изучения социально-психологических особенностей приемных семей, способствующих успешной социализации детей-сирот, и данное исследование вносит непосредственный практический вклад в реализацию данной стратегии.

